

“KALILA VA DIMNA” ASARIDA HIKOYA ICHIDA HIKOYA USULI

*Badriddinova Madina Nafiddinovna
BuxDU filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Kalila va Dimna” asarida qo’llanilgan hikoya ichida hikoya usulining o’ziga xosligi tahlil qilinadi. Asarning har bir asosiy hikoyasi ichida kichik hikoyalari orqali masallar keltirilishi o‘quvchini zeriktirmay, hikoyadagi asosiy g‘oyani yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu Sharq adabiyotida keng qo’llaniladigan o‘ziga xos uslubdir.

Kalit so’zlar: Do’stlik, aql-idrok, adolat va halollik, ishonch, xiyonat.

“Kalila va Dimna” asari hind adabiyotining mashhur durdonasi bo‘lib, dastlab sanskrit tilida "Panchatantra" nomi bilan yozilgan. Uni arab tiliga mashhur tarjimon Ibn al-Muqaffa’ tarjima qilgan va shu nom bilan dunyoga tanitgan. Asarda hayvonlar tili orqali insoniy xarakterlar va jamiyatdagi muammolarni o‘rganish mumkin. Har bir qissa o‘ziga xos ma’rifiy hikmatga ega. Uzoqni ko‘ra bilish, do’st tanlash, rahbar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar kabi mavzular mukammal tasvirlanadi.

Adabiyotshunos olim, professor Suyuma G’aniyeva “Kalila va Dimna” eposi haqida quyidagi fikrlarni aytgan: “Kalila va Dimna” uzoq vaqtlardan beri o’zbek xalqiga ma’lum. Uning ko‘p hikoyatli so’zlari, ajoyib hikoyalari har xil yo’llar bilan xalq orasida keng yoyilib, og‘izdan og‘izga o‘tib kelmoqda. Asarning o‘zbek xalq ijodi va yozma adabiyotiga ham ta’siri katta. Butun dunyo xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining ham mulkiga aylanib qolgan shoh asar”. [7, 304]

Ahmadjon Meliboyev o’zining “Mangu hikmat obidasi” maqolasida asar muqaddimasiagi ushbu fikrlarni keltirgan: “Bu kitobning mazmun va maqsadini johil kimsalardan pinhon tutish uchun undagi rivoyatlar hayvonlar va qushlar tilidan naql etiladi. Beaql odamlar uchun uning mazmuni yuzaki ko’rinar, ammo farosatli odamlar esa undan g’oyat chuqur, ibratli ma’no javohirlarini topadilar, manbalari juda boy va go’zal ekanligini ko’radilar. Bu kitob faylasuf uchun — keng bir fazo, aql uchun — buyuk mashq maydoni, kitob muxlislari uchun — unutilmas xotira, ma’nosiga tushunadiganlar uchun — ajoyib bir ibrat xazinasidir”.

“Kalila va Dimna” asarida hikoya ichida hikoya usuli qo’llanganini ko’plab hikoyalarda ko’rishimiz mumkin. Masalan, “Boyqush va qarg’alar” haqidagi hikoyada turli xil mavzudagi rivoyat, masallar keltiriladi:

“Boyqush va qarg’alar” hikoyasi pand-nasihat va hayotiy tajriba bilan boyitilgan qissalardan biri. Asar nafaqat asosiy syujetni, balki har bir kichik voqeя orqali hayotiy saboqlarni o‘rgatadi. Do’stlik, dushmanlik va aql-idrok haqida saboq beradi. Quyida hikoya mazmuni keltiriladi: qarg’alar va boyqushlar o‘rtasida doimiy dushmanlik bor

edi. Bir kuni boyqushlar qarg’alarga hujum qilib ko’p qarg’alarni o’ldirishadi. Tongda qarg’alar podshohi va uning 5 vaziri kengash qilib bu masalaga qanday yechim topish haqida suhbatlashishadi. Vazirlar sulk tuzish, Vatanni tashlab ketish, taslim bo’lish yoinki dushmanqa qarshi urush boshlash haqida taklif berishadi. Vazirlar ichida Korshinos ismli qarg’a boyqushlar bilan sulk tuzishning ham, ularga qarshi jang qilishning ham samarasizligini, boyqushlarni faqat hiyla yo’li bilan mag’lub eta olish mumkinligini aytadi. Ushbu majlisdan so’ng qarg’alar podshohi Korshinosning oldiga kelib bu ishni qanday qilish haqida so’raydi va shu joydan hikoya ichida hikoya aytish boshlanadi.

Korshinos har bir podshohning ishongan vaziri borligini unga haddan ortiq ishonib sirini aytishi o’ziga dushman bo’lishini “**Kashmir podshohi vaziriga sir aytgani, shu sababli taxtidan tushgani haqidagi**” hikoyada aytib beradi. Kashmir viloyati shohining husnda tengsiz kanizi bo’ladi. Bir kuni podsho mulozimlaridan biri qiz bilan ko’z uyushtirib turganini ko’rib yigitni o’ldirmoqchi ekanligi haqida vaziriga aytadi. Vaziri bu xabarni qiziga, qizi xizmatchisiga, xizmatchi esa o’sha yigitga borib aytadi. Tonggacha yigit do’stlari bilan podshohni o’ldirib ketadi.

Shoh Korshinos bilan xilvatga kirib ular bilan boyqushlar orasida bo’lgan adovat va dushmanlikka nima sabab bo’lishi mumkinligini so’raydi. Korshinos: “**Bir qarg’aning aytgan bir kalima so’zi sabab bo’lgan edi**”- deydi va keyingi hikoyani boshlaydi. U kalima boyqushlar o’zlariga sardor tayinlayotgan paytda qarg’aning aytgan gapi bo’ladi. Qarg’a boyqushlarga: “O’zingizga o’zingiz sardor bo’ling, boyqush dunyodagi qushlarning eng xunugi, botinan eng yomoni, aqli kam, o’zi nihoyat darajada ahmoq, serjahl, rahmsiz, uning ustiga, u kunduz kuni hech narsa ko’rmaydi”- deb boyqushni haqorat qiladi. Fikrini isbotlash uchun “**Quyonlarning o’z o’ziga hukmdor bo’lganligi**” haqidagi bundan tashqari hayotingizni hiylakor podshohga topshirmang deb “**Taqvodor mushuk kaklik va tihu**” haqida hikoya aytadi. Shu kundan boshlab boyqushlar sardori ko’nglida qarg’alarga nisbatan adovat boshlanadi.

Boyqushlar kengashi va shubha haqidagi hikoya

Qarg’a boyqushlarga yaqinlashib, ularga yordam berishni taklif qiladi. Boyqushlarning donosi bu taklifni shubha bilan qarshi olib, bunday masalni hikoya qiladi: “**Tovuq va tulki haqida hikoya**” Tulki bir kuni tovuqqa shunday deydi: “Biz doimo dushman bo’lganmiz, lekin endi tinchlik qilishni xohlayman. Men senga o’zimizning daraxt mevalaridan beraman, sen esa menga tuxumlaringni bergen.” Tovuq bu so’zlarga ishongan edi, ammo tulki birinchi imkoniyatda uni yeb qo’yadi. Boyqushlarning donosi qarg’aning taklifidan voz kechishni maslahat beradi, ammo boshqa boyqushlar uning maslahatini e’tiborsiz qoldiradi. Yomon niyatli dushman hech qachon do’st bo’la olmaydi.

Shundan so'ng qarg'alar o'zini boyqushlarga do'stdek ko'rsatib hiyla uyushtiradi. Qarg'a o'zini boyqushlar oldida ularning qarg'alarga qarshi ittifoqchisi sifatida ko'rsatadi. U o'z so'zlari bilan boyqushlarni ishontiradi va boshpanalarining joyini bilib oladi. Bu orada boyqushlar o'zlarining dushmanlarini qanday mag'lub etishni muhokama qilishadi. Qarg'a boyqushlarning butun strategiyasini o'z qabilasiga yetkazadi. Boyqushlar o'zaro maslahat qilayotib, quyidagi masalni muhokama qilishadi: "***Eshak va sher haqida hikoya***" Bir eshak o'rmonda yurib, sherni ko'rib qoladi. U sherga shunday deydi: "Sen kabi kuchli dushmanim yo'q. Ammo seni mag'lub qilish uchun men o'zimni qanday tutishni yaxshi bilaman." Sher kulib, javob beradi: "Kuchli dushman haqida gapirishni bas qil. Chunki kuchsizlar gapiradi, kuchlilar esa harakat qiladi." Boyqushlar bu hikoyadan shunday xulosa qilishadi: "Biz kuchli bo'lsak ham, hiyla ishlatishimiz kerak."

Xuddi shu vaqtida qarg'alar g'alabaga erishish uchun birdamlik rejasini tuzayotgan edilar. Qarg'a boshlig'i o'z qabilasini boyqushlarga qarshi kurashga tayyorlab, ularga birdamlikning ahamiyatini tushuntiradi. U quyidagi hikoyani aytadi: "***Olmaxon va ilon haqida masal***" Bir olmaxon daraxt kovagida yashaydi. Bir kuni ilon uning kovagiga kirib, bolalarini yeb qo'yadi. Olmaxon yolg'iz edi va ilonga qarshi kurasha olmadi. Shundan so'ng u boshqa olmaxonlardan yordam so'radi. Birgalikda ular ilonni kovakdan chiqarib yuborishdi va o'z uyini himoya qildi. Bu masaldan: "Yakkalanish mag'lubiyatga olib keladi, birdamlik esa kuch beradi." xulosasiga kelgan qarg'alar boyqushlarni yong'inda halok qilib, yo'q qilishni maqsad qilishadi. Qarg'alar boshlig'i boyqushlarning bospanasini yo'q qilish uchun ularga olov olib borishni buyuradi. Qarg'alar birgalikda daraxtlarni yoqib, boyqushlarning uyini vayron qilishadi. Bu rejada qarg'alarning birdamligi asosiy rol o'ynaydi. Qarg'a boshlig'i reja tuzayotib, quyidagi masalni aytadi: "***Qari sher va bo'ri haqida hikoya***" Bir qari sher ovlay olmasdi. U bo'ridan yordam so'radi. Bo'ri sherga o'ljani qanday ovlash haqida maslahat berdi, lekin sher o'ljani ovlashda bo'rining o'zini qurban qildi. Qarg'a boshlig'i shunday deydi: "Boyqushlar faqat tunda ko'ra oladi. Ular uchun kunduz xatarli. Biz ularni kunduz kuni mag'lub qilamiz." Boyqushlar kunduzi qarshilik ko'rsata olmagani uchun yengiladi. Har qanday ittifoqni, har kim bilan tuzishdan avval ehtiyyotkor bo'lish kerak zero, boyqushlarning halokatiga ularning ehtiyyotsizligi sabab bo'ldi.

"Kalila va Dimna" eposining har bir hikoyasi pand-nasihat va hayotiy tajriba bilan boyitilgan. Buni faqat hikoyalardagi asosiy syujetda emas, balki har bir hikoya ichida keltirilgan kichik voqealar orqali hayotiy saboqlarni o'rgatganidan ham bilib olishimiz shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kalila Dimna / Hind eposi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 292 b

2. Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyuma G'aniyeva. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2019. - 304 b.
3. Ahmadjon Meliboyev. “Mangu hikmat obidasi.” Xurshid Davron kutubxonasi, 2015.
4. Kalila va Dimna / Hikmatnoma, Suyuma G'aniyeva tarjimasi. – Toshkent: Istiqlol, 1994. – 256b.